

DARK TURIZM. SAYOHAT MADANIYATIDAGI QORA TUSHUNCHALARNI IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Abdullayeva Saodatxon Murod qizi

Alfraganus Universiteti Turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Qutlimurotov Fayzullo Sa'dullayevich

*Ilmiy maslahatchi: Alfraganus Universiteti Xalqaro turizm menejmenti
kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqola dark turizmning mohiyati, turlari va jamiyatga ta'siri haqida batafsil ma'lumot beradi. Dark turizm insoniyat tarixidagi fojeali hodisalar bilan bog'liq joylarga sayohat qilishni o'z ichiga oladi va bu sayohatlar hissiy, madaniy va bilim olish maqsadlariga xizmat qiladi. Maqolada dark turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, uning etik jihatlari va ilmiy o'rganish usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Dark turizm, tarixiy fojealar, genotsid joylari, urush maydonlari, falokat hududlari, etik masalalar, kommersializatsiya, hissiy tajriba, madaniy anglash, ilmiy yondashuv.*

Dark turizm insoniyatning o'tmishidagi fojeali, dramatik va ba'zan g'aroyib voqealarga bo'lgan qiziqishni qondiradigan turizm turi sifatida ommalashmoqda. Ushbu turizm turi odatda o'lim, falokat, urush va boshqa fojeali hodisalar sodir bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi. Dark turizmning o'ziga xos xususiyatlari va jamiyatidagi roli hozirgi kunda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda.

Dark turizm sohasidagi dastlabki ilmiy tadqiqotlarni 1996-yilda Lennon va Foley olib borgan. Ular dark turizmni, odamlarning fojea va o'lim bilan bog'liq joylarga sayohat qilishga bo'lgan qiziqishi sifatida ta'riflagan. Ushbu turizmning asosiy maqsadi tarixiy bilim olish, o'tmishda sodir bo'lgan voqealar haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish, odamlar ushbu joylarda his qiladigan turli darajadagi qo'rquv hisslarni olish, madaniy anglash, shuningdek, turli madaniyatlarning fojealarga nisbatan munosabatini o'rganishdan iborat.

Dark turizm turli shakllarda namoyon bo'ladi va uning quyidagicha turlari mavjud:

1.Urush maydonlari: Ikkinchi jahon urushi maydonlari, xususan, Normandiyada joylashgan qirg'in maydonlari.

2.Genotsid joylari: Ruandadagi Gisozi Memorial markazi yoki Xolokost bilan bog'liq konsentratsion lagerlar.

3.Falokat hududlari: Chernobil yadro elektr stansiyasi va Fukusima hududlari.

4.O'lim muzeylari: Torture muzeylari yoki jinoyat qurboni bo'lgan joylarga bag'ishlangan ekspozitsiyalar.

5.Tabiiy ofatlar sodir bo'lishi bilan bog'liq joylari: Tsunami, zilzila yoki vulqon hodisalari sodir bo'lgan joylar.

Dark turizmning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi bir qancha omillar mavjud.Ulardan biri globalizatsiya hisoblanadi.Bu orqali sayohatning qulaylashishi va turizmning ommalashuvi ro'y beradi.Dark turizmning rivojlanishida turizmning boshqa turlari singari medianing ta'siri yuqori hisoblanadi.Hodisalarni media orqali keng yoritish bevosita sayohatchilarning dark turizmga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Fojea va o'limga bo'lgan qiziqish insoniyat tarixida doim mavjud bo'lib kelgan va bu inson tabiatiga xos qiziqish sanaladi.

Dark turizmning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan ba'zi etik muammolar ham yo'q emas.Ulardan biri kommersializatsiya bo'lib bu fojea joylarining tijoratlashtirilishi demakdir. Ushbu joylarda qurbonlar xotirasi qanday saqlanayotganiga e'tibor qaratish, sayohatchilar bu joylarga dark turizmning asl mazmun va mohiyatini chinakam anglash uchunmi yoki shunchaki hissiy qoniqish uchun kelayotganligini aniqlash ham muhim hisoblanadi.

Dark turizm deganda tarixan o'lim va fojialar bilan bog'liq joylarga sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizm turi tushuniladi.Uning asosiy maqsadi bunday joylarning tarixiy ahamiyatini o'rganish hisoblanadi.Turistlarning tajribalarini va ushbu joylarga bo'lgan hissiy munosabatlarini tahlil qilish,Dark turizmning jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy o'rnini o'rganish binobarin ushbu turizmning mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini baholashda fenomenologik yondashuv,sotsiologik tahlil,iqtisodiy o'rganish keng qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlar hisoblanadi.

Germaniya dark turizm rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi.Bu mamlakatda Ikkinchi jahon urushi va Holokost bilan bog'liq ko'plab joylar mavjud.Masalan, Berlin devori, Dachau konsentratsion lageri va boshqa tarixiy joylar dark turizmga oid muhim destinatsiyalardan sanaladi.**Polsha**dagi Auschwitz-Birkenau konsentratsion lageri dunyodagi eng mashhur dark turizm nuqtasi hisoblanadi.Bu yerda millionlab insonlar hayotdan ko'z yumgan.**AQSh**da esa 11-sentabr xotira majmuasi,

Gettysburg jang maydoni va Alkatraz qamoqxonasi kabi joylar dark turizmning mashhur manzillaridir. **Yaponiya** dagi Hiroshima va Nagasaki shaharlaridagi atom bombasi muzeylari va xotira joylari dark turizmga yaqqol misol bo'la oladi. **Kambodja** da Pol Pot rejimi davridagi qirg'inlar bilan bog'liq joylar, masalan, Choeung Ek qirg'in maydonlari va Tuol Sleng qamoqxonasi muzeyi, dark turistlar tashrif buyuradigan asosiy manzillardir. Chernobil atom elektr stansiyasi va Pripyat shahri Ukrainadagi dark turizmning eng mashhur joylaridan biridir. **Rwanda** da 1994-yilgi genotsid bilan bog'liq joylar, masalan, Kigali genotsid memoriali, dark turizmning muhim manzillaridir. **Avstriya** dagi Mauthausen konsentratsion lageri va boshqa Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq joylar dark turizmning asosiy nuqtalaridir. Dark turizm uchun qiziqarli manzil hisoblangan Shimoliy Korea dunyodagi eng yopiq va sirli davlatlardan biridir. Londondagi Tower qamoqxonasi, Jack the Ripper bilan bog'liq joylar va boshqa tarixiy fojiali joylar Buyuk Britaniya dark turizmining mashhur manzillaridir.

Dark turizm zamonaviy turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida insoniyat o'tmishini anglash, hissiy tajribalarni boyitish va madaniy bog'lanishni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu turizm turi bilan bog'liq etik muammolarni hal qilish va bu joylarning tarixiy ahamiyatini to'g'ri aks ettirish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lennon, J., & Foley, M. (2000). *Dark Tourism: The Attraction of Death and Disaster*.
2. Sharpley, R., & Stone, P. (2009). *The Darker Side of Travel: The Theory and Practice of Dark Tourism*.
3. Ruanda Genotsid Memorial markazi rasmiy sayti.
4. Chernobil Ekskursiyalar markazi statistikasi (so'nggi yillar hisobotlari).
5. Dark Tourism Destinations. (n.d.). *World Atlas*. Retrieved from <https://www.worldatlas.com>
6. Dark Tourism: Exploring the World's Darker Side. (n.d.). *Dark Tourism Official Website*. Retrieved from <https://www.dark-tourism.com>
7. Exploring Dark Tourism: Why Are We Drawn to Tragedy and Death? (n.d.). *National Geographic*. Retrieved from <https://www.nationalgeographic.com>